

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Elektr ta'minoti shartnomasi bo'yicha taraflar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda javobgar bo'ladi shuningdek, shartnomalar bajarilmagan yoki tegishli tarzda bajarilmagan hollarda, "Ta'minotchi korxona" buning natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashga, "Iste'molchi" esa yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashga majbur.

5.2. "Ta'minotchi korxona" "Iste'molchi" oldida moddiy javobgar bo'lmaydi agar:

"Iste'molchi" elektr energiyasi iste'molining belgilangan rejimiga rioya qilmay, elektr energiyasi iste'moli yoki quvvatining shartnomaviy miqdoridan oshib ketishiga yo'l qo'yganda, "Ta'minotchi korxona" tomonidan belgilangan elektr energiyasi cheklash jadvali bajarmagani tufayli past sislati elektr energiyasi yetkazib berilganligi uchun;

zaxira manbai avtomatik ishga tushganda, avtomatik qayta ulash va avtomatik tarzda chastotani sozlash bilan bog'lik o'chirishlar vaqtida elektr energiyasini yetkazib berish borasidagi tanaffuslar uchun;

elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilar (IES, GES) va uni magistral tarmoq orqali yetkazib beruvchi (MET) korxonalar tomonidan elektr ta'minotida uzilishlar bo'lganda.

5.3. Tomonlar ularning xohish va harakatlariiga bog'liq bo'limgan tabiiy ofsatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar sababi ushbu sharoitlarda qaytarib bo'lmaydigan va oldindan biliib bo'lmaydigan favquollo'da holatlarni o'z ichiga olgan yengib bo'lmas kuch (fors-major) oqibatida o'z zimmasiga olingen majburiyatlarni bajara olmasa, tomonlardan hech biri o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmagani uchun javob bermaydi.

5.4. Mazkur shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha kelishmovchilik va nizolar muzokara o'tkazish orqali hal qilinadi. Kelishmovchiliklarni muzokara o'tkazish orqali hal qilishning iloji bo'limganda, ular qomunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

VI. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

6. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjalardagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishonchiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi. Iste'molchi ushbu shartnomasi amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdar shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonanining manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta'minotchi korxonanining hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjalarning Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablari qat'iy riyo etish majburiyatini oladi.

VII. YAKUNIY SHARTLAR

7.1. Shartnomasi 20~~22~~ yil 31.12 gacha bo'lgan muddatga tuziladi.

Shartnomaning amal qilish muddati tugaganda, tomonlardan biri uni uzaytirish yoki bekor qilish bo'yicha ariza bermagan bo'lsa, shartnomasi keyingi har bir yilga uzaytirilgan hisoblanadi (Byudjet tashkilotlari bundan mustasno). Ariza ushbu Shartnomanining amal qilish muddati tugashidan bir oy oldin taqdim etilishi lozim.

7.2. Mazkur shartnomasi bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan va tomonlarning har birida saqlanayotgan ikki (Byudjet tashkilotlari uchun uch) nusxada tuzilgan. Shartnomanining ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

7.3. Tomonlarning birini tashabbusi bilan shartnomani muddatidan oldin bekor qilish, ikkinchi tomonni bekor qilish muddatidan o'ttiz kun oldin habardor qilgan xolda va tomonlar o'zaro hisob-kitob qilishi sharti bilan bekor qilinishi mumkin. Bekor qilish to'g'risida xabarnoma yozma ravishda yuboriladi.

7.4. Barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular faqat yozma ravishda amalga oshirilib, tomonlarning vakolati shaxslari tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy xisoblanadi.

7.5. Mazkur shartnomasi talablarida nazarda tutilmagan tartib – qoidalar Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22 son qarori bilan tasdiqlangan Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari hamda boshqa amaldagi normativ – huquqiy xujjatlar talablariga muvofiq tartibga solinadi.

ISTE'MOLCHILARGA OGOKHLANTIRISH !

Umumiyligi foydalanshodagi elektrtarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ularish yoki ulardan foydalansh qoidaiarini boshqacha tarzda buzish yoxud elektr energiyasini hisobga olish asboblariga shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoki bunday hisobga olish asboblarining ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 101 hamda Jinoyat kodeksining 185-2 moddalariga asosan javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.